



**Xolbutayeva Shahnoza Jumanazar qizi**  
*O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti*  
*Xotijiy til va adabiyot 3-kafedrası*  
*2-bosqich 2403-guruh tabalasi*  
*E-mail: xolbutayevashahnoza776@gmail.com*  
*Tel: +998-94-776-19-02*

### **O'SHA AJIB TONG**

Tong nurlari to'kilgan yerga,  
Osmon toza, moviy va sokin.  
Yorug'lik ham tushar yurakka,  
Quyosh kular mehr-la sekin.

Dunyo to'ldi so'zsiz duoga,  
Bu tong, go'yo, uyg'otar jonni.  
Bu manzara na rasm, na tush,  
Shu on chiqib kezdin har yonni.

Atrof toza, musaffo har yon,  
Go'yo baxtdan sarhushdir tanam.  
Zilol suvli, toza anhorlar,  
Jildiragan sunbul-u sanam.

Yashil makon, sokin bulutlar  
Qarshilaydi meni, go'yoki,  
Yashillikda qolsammikan-a,  
Osmonida uchsammi yoki.

Uchar qushlar ozodlik timsol,  
Osmondagi orzular misol.  
Qanotida tinchlik, nur, sabr,  
Bu tong boshqa, sehrli baribir.

